JIZZAX VILOYATI PAXTAKOR TUMANI HOKIMI
QARORI

2024 - yil 6 - iyun 119-3-52-Q/24 Paxtakor tuman hokimligi

Yo‘l belgisi, radar hamda svetofor o‘rnatish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 4 apreldagi “Avtomobil yo‘llarida inson xavfsizligini ishonchli ta’minlash va o‘lim holatlarini keskin kamaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-190-sonli, Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 26-dekabrdagi 342-sonli qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi hududidagi avtomobil yo‘llari mintaqasida xavfsizlikni ta’minlash va tashkil etish qoidalari” talablari hamda 2022-yil 12-apreldagi “Yo‘l harakati qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 172-sonli qarori ijrosi yuzasidan piyodalar xavfsizligini ta’minlash, transportlar tirbandligini oldini olish maqsadida, xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2024-yil 10-fevraldagi VI-51-23-3-0-K/24-sonli qarori, Jizzax viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2024-yil 17-fevraldagi 10/6-380-sonli xati hamda tuman ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 7-martdagi 41/564-sonli xatlarini inobatga olib, O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 5, 6 va 25-moddalariga asosan

QAROR QILAMAN:

1. Xalq deputatlari Jizzax viloyati Kengashining 2024-yil 10-fevraldagi VI-51-23-3-0-K/24-sonli qarori, Jizzax viloyati ichki ishlar boshqarmasi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi boshqarmasining 2024-yil 17-fevraldagi 10/6-380-sonli xati hamda tuman ichki ishlar bo‘limining 2024-yil 7-martdagi 41/564-sonli xatlari ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagi:

- M-39 “Toshkent-Termiz” avtomagistral yo‘lining Paxtakor tumani

“Mingchinor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidan o‘tgan 947, 949, 300 km oralig‘ida 5.24 “Aholi yashash punktining boshlanishi”, 5.25 “Aholi yashash punktining oxiri” va 5.43 “Radar” yo‘l belgilarini o‘rnatish hamda ushbu yo‘lning 957 va 958 km oralig‘idan Paxtakor tumani “Paxtakor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududidagi “Yangiyer-Chimqo‘rg‘on” yo‘nalishiga burilish joyi va “Chamanzor” mahalla fuqarolar yig‘ini hududiga kirish qismiga ya’ni 4R-38 “Uchtepa-Jizzax” avtomobil yo‘lidan M-39 “Toshkent-Termiz” avtomagistral yo‘lining 962 kmga o‘tish joylariga “Svetofor” belgilarini o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Tumani ichki ishlar bo‘limi jamoat xavfsizligi xizmati yo‘l harakati xavfsizligi bo‘limi (G‘.Erbekov)ga yangi o‘rnatilayotgan yo‘l belgilarining amaldagi davlat namunasi (davlat standarti) asosida bo‘lishini qat’iy nazoratga olish topshirilsin.

4. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari O.Amanov hamda tuman ichki ishlar bo‘limi boshlig‘i Y.Akaboyev zimmalariga yuklatilsin.

Tuman hokimi v.b. **Ш.Шодмонов**